

STRATEGIK HAMKORLIKNING YANGI DAVRI O'ZBEKISTON AMERIKA QO'SHMA SHTATLARI UCHRASUVI 2025.

Samarqand Iqtisodiyot va servis instituti

i. i. d., professori

Xalikova Lola Nazarovna

Rasulova Munisa Ubaydullo qizi

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti,

Iqtisodiyot fakulteti Jahon iqtisodiyoti va xalqaro

iqtisodiy munosabatlar yo'nalishi XIM-125 guruh talabasi

Anatatsiya :

Strategik hamkorliklar Amerika Qo'shma Shtatlari va O'zbekiston rasmiy uchrashuvlari hamda ikki davlat o'rtasidagi shartnomalar va bitmlar tasnifi. Shuningdek kuni kecha bo'lib o'tgan davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning Amerika Qo'shma Shtatlari Vashington shahridagi amaliy tashrifi. Tashrif doirasida Amerika Qo'shma Shtatlari prizedenti Donald Tramp taklifiga binoan davlatimiz rahbarining Oq uydagi uchrashuvi. "C5+1" formatida Markaziy Osiyo va Amerika Qo'shma shtatlari hamkorligini mustahkamlash. Ta'lim va madaniyat, innovatsiya, biznes singari tarmoqlar sonining oshirilishi, mintaqaviy va global muammolar yuzasidan tomonlarning fikr almashishi, hamkorlikdagi salohiyatni oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vaziri Baxtiyor Saidovning Amerika Qo'shma shtatlari prezidenti maxsus vakili Paolo Zampolli bilan 2025-yil 28-avgustagi diplomatik aloqalarning maqsad va vazifalari. Bugungi kunda bunday diplomatik aloqalarning davlatimiz iqtisodiyotiga ahamiyati va ta'siri.

Strategic partnerships between the United States of America and Uzbekistan include official meetings, as well as the classification of agreements and treaties concluded between the two countries. In addition, this text highlights the recent working visit of the

President of the Republic of Uzbekistan, Shavkat Mirziyoyev, to Washington, D.C. Within the framework of this visit, at the invitation of U.S. President Donald Trump, the leader of our country held a meeting at the White House. The “C5+1” format serves to strengthen cooperation between the Central Asian states and the United States. The expansion of such sectors as education and culture, innovation, and business, as well as the exchange of views on regional and global issues, contributes to enhancing joint potential. For this purpose, on 28 August 2025, the Minister of Foreign Affairs of the Republic of Uzbekistan, Baxtiyor Saidov, met with Paolo Zampolli, the Special Representative

Стратегические партнёрства между Соединёнными Штатами Америки и Узбекистаном включают официальные встречи, а также классификацию договоров и соглашений, заключённых между двумя государствами. Кроме того, в тексте рассматривается недавний рабочий визит президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева в Вашингтон. В рамках данного визита по приглашению президента США Дональда Трампа глава нашего государства провёл встречу в Белом доме. Формат «C5+1» направлен на укрепление сотрудничества между странами Центральной Азии и Соединёнными Штатами. Расширение таких сфер, как образование и культура, инновации и бизнес, а также обмен мнениями по региональным и глобальным вопросам способствует повышению совместного потенциала. С этой целью 28 августа 2025 года министр иностранных дел Республики Узбекистан Бахтиёр Саидов провёл встречу со специальным представителем президента Соединённых Штатов Америки Паоло Замполли. На встрече были обсуждены цели и задачи дипломатического взаимодействия.

Kalit soʻzlar :

C5+1 formatida sammit, AQSh va O'zbekiston strategik hamkorligi, 2025 kongresslari , 2025 strategik dialogi, Paolo Zampolli – O'zbekiston uchrashuvi, Shavkat Mirziyoyev – Donald Trump uchrashuvi 2025, Washington DC muzokaralar, Prezident Mirziyoyevning AQSHga tashrif.

C5+1 format Summit, Strategic partnership between the United States and Uzbekistan, 2025 congresses, 2025 strategic dialogues, Paolo Zampolli – Uzbekistan meeting, Shavkat Mirziyoyev – Donald Trump meeting 2025, Washington, D.C. negotiations, President Mirziyoyev's visit to the United State

Саммит в формате C5+1, Стратегическое партнёрство США и Узбекистана, Конгрессы 2025 года, Стратегический диалог 2025 года, Встреча Паоло Замполли – Узбекистан, Встреча Шавкат Мирзиёев – Дональд Трамп 2025 года, Переговоры в Вашингтоне (Вашингтон, округ Колумбия), Визит президента Мирзиёева в Соединённые Штаты

Kirish:

Bugungi kunda davlatimiz prezidenti tashabbusi bilan Amerika Qo'shma shtatlari va O'zbekiston o'rtasidagi nafaqat iqtisodiy siyosiy, strategik balki savdo-investitsiya, madaniy-gumanitar hamkorliklarni kengaytirish yuzasidan 2025-yil yil davomida O'zbekiston va AQSH orasida 2 ta muhim uchrashuv avgust va noyabr oylarida hamda bir amaliy tashrif bo'lib o'tdi. Bu tashrifning asosiy sababi "C5+1" formati doirasida hamkorlik, investitsiyalar va savdo-iqtisodiy hamkorlikni kengaytirishga kelishuvlar qabul qilindi. Shuningdek O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vaziri Baxtiyor Saidovning Amerika Qo'shma shtatlari prezidenti maxsus vakili Paolo Zampolli bilan 2025-yil 28-avgustagi diplomatik aloqalarning maqsadi ta'lim va madaniyat, innovatsiya, biznes singari qator tizim va yo'nalishlarni ko'paytirish va takomillashtirish. Bu uchrashuvda O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vaziri Baxtiyor Saidov Nyu-Yorkda Amerika Qo'shma shtatlari davlat kotibining birinchi o'rinbosari Kristofer Landau bilan uchrashdi. Uchrashuv davomida har ikkala tomonlar "ta'lim va madaniyat sohalarini qamrab olishdan tashqari, innovatsiya va biznes kabi qator tizimliy masalalarni ko'rib chiqdi. (kun. Uz) Saylovchilarning xabar berishicha, uchrashuvda "O'zbekiston va AQSH o'rtasidagi strategik sheriklik va ko'p qirrali hamkorlik munosabatlarini yanada kengaytirish" masalalari atroflicha ko'rib chiqildi. Shu bilan birga, muloqot davomida mintaqaviy va global muammolar bo'yicha fikr almashildi — ya'ni, uchrashuv faqat bilateral hamkorlik emas, balki regional va global kontekstni ham qamrab olgan (prezident.

Uz). Albatta bunday uchrashuvlar davlatimiz istiqbolini yuksaklarga ko'tarishda muhim ahamiyat kasb etadi. Uchrash davomida O'zbekiston—AQSH ko'p tomonlama aloqalarining muhim mavzulari muhokama qilindi. O'zbekiston Tashqi ishlar vazirligi va AQSH davlat departamenti mamlakatlar o'rtasidagi strategik sheriklikni barcha sohalarida kengaytirish yo'lida yaqin hamkorlikni davom ettirishiga kelishib olindi. "Ishbilarmon doiralar o'rtasida mustahkam ko'priklar barpo etish, har ikki yo'nalishda tovar ayirboshlash hajmini oshirish, Markaziy Osiyo va undan tashqarida farovon taraqqiyotni ta'minlash kun tartibimizning asosiy qismidan o'rin oldi", deb yozadi vazir Baxtiyor Saidov. Yana shuni ham mamnuniyat bilan takidlash kerakki yaqin kunlarda muhtaram prizedentimiz Shavkat Mirziyoyev 4-6-noyabr kunlari Amerika Qo'shma shtatlariga amaliy tashrifi ayniqsa diqqatga sazovordir. Ushbu uchrashuv C5+1 formatida bo'lib o'tdi.

Rasmiy maqola «The C5+1 format is a milestone in Central Asian diplomatic history» — deb nomlangan materialda C5+1 formatining paydo bo'lishi, tuzilishi va maqsadlari bayon qilingan edi. 2021-yil 23-aprel sanasida "C5+1 Virtual Ministerial" majlisi doirasida mamlakatlar tashqi ishlar vazirlari va AQSH Davlat kotibi ishtirokida virtual uchrashuv o'tkazilganligi haqida rasmiy bayonot mavjud (Birlashgan millatlar tashkiloti). 2025-yilda formatning 10-yilligi munosabati bilan o'tkazilgan tadbirda ishtirok etganlar orasida O'zbekiston Tashqi ishlar vaziri ham borligi qayd etilgan. (Biznes va moliya yangiliklarni). Shuningdek 2015-yilda, 26-sentyabrda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi sessiyasi chog'ida AQSH Davlat kotibi va Markaziy Osiyo besh davlatining tashqi ishlar vazirlari uchrashuvi bo'lib, bu muhit C5+1 formatining asoschisi bo'lgan. C5+1 format doirasida iqtisodiy, energetika-atrof-muhit va xavfsizlik sohalarida "ishchi guruhlar" tuzilganligi, ya'ni format faqat "siyosiy deklaratsiya" emas, balki amaliy hamkorlik tizimi ekanligi ham rasmiy ravishda ta'kidlangan (UZA. UZ). C5+1 — bu AQSh + Markaziy Osiyodagi besh qo'shni davlatlar ya'ni O'zbekiston, Qozog'iston, Tojikiston, Qirg'iziston, Turkmaniston o'rtasidagi diplomatik va strategik hamkorlik formati. Bu format 2015-yilda tashkil etilgan va 2025-yil 6- noyabrda Washingtonda o'tkazilgan sammitda 10 yilligini nishonladi.

C5+1 doirasidagi hamkorlik strategik minerallar va resurslar, Transport va logistika yo'llari, tranzit yo'nalishlari. Strategik minerallar va resurslar — Ozbekistonda, Qozog'istonda va mintaqaning boshqa davlatlarida boy tabiiy resurslar mavjudligi sababli, AQSh ularni o'z zanjirlariga kiritishni xohlamoqda: xom ashyo — nodir metallar, qo'shimcha ishlab chiqarish va qayta ishlash zanjirlari. Transport va logistika yo'llari, tranzit yo'nalishlari (Middle Corridor) — Markaziy Osiyodan Yevropa va boshqa bozorlarga to'g'ri va barqaror tranzit yo'llarini rivojlantirish, logistika va savdo tarmoqlarini kengaytirish. Iqtisodiy hamkorlik, investitsiyalar, infratuzilma va sanoat loyihalari — eksport-import, yangi sanoat, innovatsiya, energiya, transport va boshqa tarmoqlar bo'yicha sarmoyalar jalb qilish. Geosiyosiy raznovektor siyosat va diversifikatsiya — Mintaqa davlatlari o'z suvereniteti va mustaqilligini saqlagan holda, global kuchlar o'rtasida muvozanatli siyosat yuritish imkonini beradi. 2025-yil 6-noyabrda Washingtonda o'tkazilgan sammit — C5+1 formati doirasidagi eng yirik va ramziy uchrashuv bo'ldi: birinchi marta barcha besh Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlari va AQSh prezidenti bir joyda yig'ildi. Sammitning muhim mavzularidan biri — «kritik minerallar va nodir metallar» bo'ldi. AQSh bu resurslar tarmog'ini diversifikatsiya qilish, Xitoy va Rossiyaga qaramlikni kamaytirish maqsadida. Shuningdek, transport-logistika, energetika, sanoat va infratuzilma loyihalari, investitsiyalar, va keng ko'lamli iqtisodiy hamkorlik ko'zda tutilgan. Strategik hamkorliklar Amerika Qo'shma Shtatlari va O'zbekiston o'rtasidagi rasmiy uchrashuvlar hamda ikki davlat o'rtasida imzolangan shartnomalar va bitimlarning tasnifini o'z ichiga oladi. Shuningdek, kuni kecha bo'lib o'tgan davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning Amerika Qo'shma Shtatlari, Vashington shahriga amalga oshirgan amaliy tashrifi doirasida AQSh Prezidenti Donald Tramp taklifiga binoan Oq uyda o'tkazilgan uchrashuv ham muhim ahamiyatga ega bo'ldi. "C5+1" formati doirasida Markaziy Osiyo davlatlari va AQSh o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash, ta'lim va madaniyat, innovatsiya, biznes singari tarmoqlarni kengaytirish, shuningdek mintaqaviy va global masalalar yuzasidan fikr almashish muhokama qilindi.

Hamkorlik salohiyatini oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vaziri Baxtiyor Saidovning 2025-yil 28-avgust kuni AQSh Prezidenti maxsus vakili

Paolo Zampolli bilan uchrashuvi ham diplomatik aloqalarning ahamiyatini yanada oshirdi. Bugungi kunda bunday diplomatik aloqalarning mamlakatimiz iqtisodiyotiga ta'siri sezilarli darajada. Uchrashuvlar nafaqat ikki tomonlama munosabatlarni mustahkamlamoqda, balki mintaqaviy barqarorlikka ham xizmat qilmoqda. Kirish qismida ta'kidlanganidek, davlatimiz Prezidenti tashabbusi bilan 2025-yil davomida O'zbekiston va AQSh o'rtasida avgust va noyabr oylarida ikki muhim uchrashuv, shuningdek bir amaliy tashrif amalga oshirildi. Bu tashriflarning asosiy maqsadi "C5+1" formati doirasida hamkorlikni kengaytirish, investitsiyalar va savdo-iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirishdan iborat bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vaziri Baxtiyor Saidovning Nyu-Yorkda AQSh Davlat kotibining birinchi o'rinbosari Kristofer Landau bilan uchrashuvi ham muhim bo'lib, ta'lim, madaniyat, innovatsiya va biznes kabi sohalaridagi masalalar muhokama qilindi. Rasmiy xabarlariga ko'ra, uchrashuvda O'zbekiston va AQSh o'rtasidagi strategik sheriklikni kengaytirish va ko'p qirrali hamkorlikni rivojlantirish masalalari atroflicha ko'rib chiqilgan.

2025-yil 6-noyabr kuni Vashingtonda bo'lib o'tgan C5+1 sammiti esa format tarixidagi eng muhim uchrashuvlardan biri bo'lib, unda birinchi marta barcha Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlari va AQSh Prezidenti bir joyda ishtirok etdi. Sammitda kritik minerallar, nodir metallar, transport-logistika yo'laklari ("Middle Corridor"), energetika, sanoat va infratuzilma loyihalari muhokama qilindi. C5+1 doirasidagi hamkorlik strategik resurslar, transport va tranzit yo'llari, investitsiyalar va infratuzilma sohalarida amaliy natijalarga yo'naltirilgan. Mintaqa davlatlari o'z suverenitetini saqlagan holda, global kuchlar o'rtasida muvozanatli siyosat yuritish imkoniyatiga ega bo'lib bormoqda.

Ushbu jarayonlarga xalqaro diplomatlarning umumiy bahosi shunday ifodalanadi: "O'zbekistonning ochiqlik siyosati va islohotlarga sodiqligi Amerika Qo'shma Shtatlari bilan hamkorlikni yanada chuqurlashtirish uchun mustahkam asos yaratmoqda. Mintaqaviy integratsiya, strategik resurslar bo'yicha hamkorlik va transport yo'laklarini rivojlantirish kelgusida iqtisodiy o'sishni sezilarli tezlashtiradi." Shu nuqtai nazardan, bunday uchrashuvlar mamlakatimiz istiqbolini yuksaltirishda, iqtisodiyotning barqaror o'sishi va xalqaro maydondagi mavqeini mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi. Men ham

ushbu munosabatlarning yanada kuchayishini va kelajakda O‘zbekiston iqtisodiyotining yanada ravnaq topishini qo‘llab-quvvatlayman.

Xulosa:

Bakhtiyor Saidov — O‘zbekiston Tashqi ishlar vaziri — 2025-yil 6-noyabrdagi C5+1 sammitida shunday ta’kidladi:

> «Biz hamkorlikda Markaziy Osiyo va AQSh o‘rtasidagi ko‘p tomonlama aloqalarni yanada mustahkamlashga, savdo va investitsiya hamkorligini kengaytirishga, mintaqaviy barqarorlik va doimiy rivojlanishni ta’minlashga sodiqmiz».

Bu fikr - mintaqaviy hamkorlikning nafaqat deklarativ balki amaliy yo‘nalishda chuqurlashtirilishidan dalolat beradi. Shunday ekan, 2025-yilda imzolangan hamkorlik bitimlari, yangi institutlar (masalan, Amerika-O‘zbekiston Investitsiya va Ishbilarmonlik Kengashi), va strategik tashabbuslar — O‘zbekiston iqtisodiyoti uchun yangi investitsiyalar va rivojlanish sur‘atlarini yo‘lga qo‘yish imkonini beradi. Shu bilan birga, mintaqaviy va global darajadagi geoiqtisodiy hamkorlik, transport-logistika, energetika, nodir metallar va innovatsiyalar sohasidagi hamkorlik O‘zbekistonning eksport salohiyati va integratsiyasini oshirishga xizmat qiladi. Natijada, bu yo‘nalishlar mamlakatimizning iqtisodiy gullab-yashnashiga asos tug‘diradi. Men ham ushbu diplomatlik shiori va takliflarini qo‘llab-quvvatlayman — chunki ular nafaqat bugungi kun, balki kelajak avlodlar uchun barqaror taraqqiyot va farovonlik yo‘lini ochadi.

2025-yilda O‘zbekiston va Amerika Qo‘shma Shtatlari o‘rtasida o‘tkazilgan uchrashuvlar ikki tomonlama strategik sheriklikning yangi bosqichga ko‘tarilganini ilmiy jihatdan ham, amaliy jihatdan ham tasdiqlab berdi. Muloqotlar davomida iqtisodiyot, xavfsizlik, transport-logistika, energetika, ta’lim va innovatsiya sohalarida belgilangan yo‘nalishlar O‘zbekistonning global iqtisodiy makonga integratsiyalashuvini jadallashtirishga qaratilganini ko‘rsatadi.

Hamkorlikning ushbu shakli nafaqat ikki davlat o‘rtasidagi savdo-iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash, balki Markaziy Osiyo mintaqasining barqaror rivojlanishiga xizmat qiluvchi kompleks yondashuv sifatida namoyon bo‘lmoqda. O‘zbekistonning ochiq

iqtisodiyot tamoyillariga sodiqligi, islohotlarni chuqurlashtirishga doimiy intilishi va xalqaro hamkorlikni kengaytirish borasidagi siyosati AQSh tomonidan ham ijobiy baholanmoqda. Mazkur jarayon bo'yicha O'zbekiston Tashqi ishlar vaziri Baxtiyor Saidovning C5+1 sammitida bildirgan quyidagi fikri ham ilmiy tahlil nuqtai nazaridan muhim ahamiyatga ega:

Ushbu bayonot ikki tomonlama hamkorlikning institutsional asoslari mustahkamlanayotganini, hamkorlik doirasida shakllangan siyosiy va iqtisodiy platformalarning istiqbolda yanada samarali ishlashini ilmiy jihatdan asoslaydi. Shuningdek, bu fikr O'zbekistonning geoiqtisodiy strategiyasida AQSh bilan aloqalar muhim o'rintutishini ko'rsatadi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, 2025-yilda erishilgan natijalar O'zbekistonning eksport salohiyati, investitsiya muhitining jozibaliligi va raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi uchun yangi imkoniyatlarni ochadi. Xalqaro ekspertlar tomonidan ham mazkur uchrashuvlar mintaqaviy integratsiya jarayonlari, strategik resurslar bozori, transport tarmoqlari va innovatsion infratuzilma rivojiga ijobiy ta'sir etishi ta'kidlanmoqda. Shu bois, O'zbekiston–AQSh strategik sherikligining yanada kengayishi mamlakatning iqtisodiy o'sish sur'atlarini oshirish, mintaqaviy barqarorlikni mustahkamlash va xalqaro maydondagi pozitsiyalarni yanada kuchaytirish uchun muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimiz uchun ushbu yo'nalish kelgusida iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, investitsion oqimlarni diversifikatsiya qilish va global raqobatbardoshlikni ta'minlashga xizmat qilishi kutiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy sayti — president.uz
2. O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi — mfa.uz
3. AQSh Davlat departamenti rasmiy axborotlari — state.gov
4. Birlashgan Millatlar Tashkiloti ma'lumotlari — un.org
5. C5+1 formatiga oid rasmiy ma'lumot — U.S. Department of State: C5+1 Diplomacy
6. "Kun.uz" va "UZA" kabi O'zbekistondagi rasmiy axborot saytlari